

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MAJITOV JO‘RABEK ALTIBOYEVICH

**KICHIK QUVVATLI BIOGAZ QURILMASINING ISSIQLIK-TEXNIK
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFARATI**

Qarshi – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по техническим наукам**

**Content of the Dissertation Abstract of Philosophy of Doctor (PhD)
on the technical sciences**

Majitov Jo‘rabek Altiboyevich

Kichik quvvatli biogaz qurilmasining issiqlik – texnik parametrlarini
asoslash..... 3

Мажитов Журабек Алтибойевич

Обоснование теплотехнических параметров биогазовой установки
малой мощности 21

Majitov Jurabek Altiboyevich

Justification of thermal engineering parameters of a low-power biogas
device 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MAJITOV JO'RABEK ALTIBOYEVICH

**KICHIK QUVVATLI BIOGAZ QURILMASINING ISSIQLIK-TEXNIK
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFARATI**

Qarshi – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.4.PhD/T1157 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik – texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qmii.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Imomov Shavkat Jaxonovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Iskandarov Zafar Samandarovich
texnika fanlari doktori, professor

Ergashev Shaxriyor Hamudillayevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika unversiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "18" 02 soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225 uy. Tel/faks.: (75) 224-02-89; e-mail: kiei_info@edu.uz Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 133 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225 uy. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti. Tel/faks: (99875) 224-02-89/224-13-95, e-mail: kiei_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «26» 12 kuni tarqatildi.
(2024 yil «26» 12 dagi № 28 raqamli reestr bayonnomasi).



G'.N.Uzoqov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi t.f.d., professor

X.A.Davlonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.f.d., dotsent

B.Urishev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iste'molchilarni uzluksiz energiya bilan ta'minlash, tizimning energiya samaradorligini oshirishda qayta tiklanadigan energiya manbalari asosidagi energiya tejamkor texnologiyalar, jumladan quyosh biogaz qurilmalaridan foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi vaqtda tabiiy gaz iste'moli dinamikasi bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, aholini yillik o'sishi 83 million nafarni va shunga asosan tabiiy gazga bo'lgan talabni o'sishi esa 43 million kubometrni tashkil etadi. Yaqin 21 yil ichida metan gazidan foydalanish miqdorining 3 barobarga ortishi bashorat qilinmoqda¹. Shu sababli, aholini tabiiy gaz bilan taminlashda quyosh biogaz qurilmalarining energetik samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida ishlovchi biogaz qurilmalarining konstruksiyalarini takomillashtirish, ish unumdorligini oshirish hamda issiqlik – texnikaviy parametrlarini optimallashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, quyosh biogaz qurilmalarining maqbul konstruktiv parametrlarini aniqlash, qurilmadagi issiqlik almashinuv jarayonlarini modellashtirish va biogaz qurilmasining energiya samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, organik chiqindilarni anaerob sharoitda bo'lmali ishlov berish orqali kechadigan fermentatsiya jarayonining samarali kechishini taminlaydigan kichik quvvatli biogaz qurilmasining energiya tejamkor konstruksiyasini yaratish va ularning asosiy energetik parametrlarini optimallashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda qishloq aholi xonadonlarini qayta tiklanuvchi energiya turlaridan foydalanib yoqilg'i bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish, biogaz tayorlash texnologiyalarini takomillashtirish, jumladan, tabiiy yoqilg'i resurslarini tejalishini ta'minlovchi kichik quvvatli biogaz qurilmalarining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrda "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarorida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan². Jumladan, 2022-2026 yillarda yoqilg'i-energetika resurslarini tejashda, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kuchaytirish, issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foiz kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya quvvatini 15 GVtga oshirish, umumiy elektr energiyasi hajmidagi ulushini 30 foizdan oshirishga va energiya samaradorligini 20 foizga oshirish ko'zda tutilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda kichik quvvatli quyosh biogaz qurilmalarini yaratish va joriy qilish dolzarb ilmiy-texnik masalalardan hisoblanadi.

¹ <https://www.iea.org/reports/renewables-2023/special-section-biogas-and-biomethane>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 maydagi O‘RQ-539-son “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida, 2022 yil 9 sentyabrdagi PF-220-sonli “Energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV “Qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa zamonaviy ilg‘or texnologiyalar asosida qurilmalar va texnologiyalarni yaratish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Organik chiqindilarni qayta ishlashga mo‘ljallangan biogaz qurilmalarining energiya samarador texnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirishga taniqli xorijlik olimlar, jumladan, G.Anupoji, akademik B.Dubrovskiy, professorlar E.Viyestur, E.Pansexava, M.Denis, B.Gandu, G.Ananashivilli, mikrobiolog olimlardan K.Sandiya, K.Kurti, Hajo Nayegele, J.Porter, G.Nikitin va boshqalar katta hissa qo‘shganlar.

Respublikamizda organik chiqindilardan qayta tiklanadigan energiya olish texnologiyasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha taniqli olimlar O.Salimov, Sh.Imomov, G‘.Uzoqov, B.Xayriddinov, B.Rahmatov, O.Komilov, R.Rabbimov, X.Davlonovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan ular tomonidan biogaz qurilmalariga pog‘onali ishlov berish, bioreaktorga organik chiqindilarni maydalab yuklash, olinadigan biogaz va bioo‘g‘it sifatini oshirish borasida ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan.

Erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan, kichik quvvatli biogaz, qurilmalarida sodir bo‘ladigan issiqlik va massa almashinuv jarayonlarini modellashtirish, issiqlik fizikaviy xususiyatlarning haroratga bog‘liqligi, energetik, iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda qaralayotgan kichik bioreaktorning yillik energiya ko‘rsatkichlarini baholash va asoslash yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot mussasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilishi 2018–2019 yillarga mo‘ljallangan BV-Itex 2018-37-son “Qishloq joylarida yuqori sifatli o‘g‘it va biogaz olish uchun organik chiqindilarni qayta ishlash qurilmasini joriy qilish” mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi biomassani anaerob muhitda termik qayta ishlovchi kichik quvvatli biogaz qurilmasining issiqlik-texnik parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

biomassani anaerob muhitda qayta ishlashga mo'ljallangan kichik quvvatli quyosh biogaz qurilmasini ishlab chiqish va issiqlik-texnik sinovdan o'tkazish;

kichik quvvatli quyosh biogaz qurilmasi reaktorida issiqlik almashinuvi jarayonlarini modellashtirish va issiqlik qarshiliklarini hisoblash;

mezofil issiqlik rejimida bioreaktorda konvektiv issiqlik almashinuvini tajribaviy tadqiq qilish va konvektiv issiqlik berish koeffitsiyenti qiymatlarini aniqlash;

mezofil harorat rejimida quyosh kollektorli biogaz qurilmasining energiya samaradorligini va issiqlik-texnik parametrlarini asoslash;

kichik quvvatli quyosh biogaz qurilmasining texnik-iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obekti sifatida organik chiqindilarni anaerob qayta ishlovchi kichik quvvatli quyosh biogaz qurilmasi hamda qurilmaning issiqlik-texnik parametri olingan.

Tadqiqotning predmetini kichik quvvatli quyosh biogaz tajriba qurilmasining anaerob fermentatsiya harorat rejimi, issiqlik va massa almashinuv jarayonlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida issiqlik almashinuvi jarayonlarini matematik madellashtirish, kichik quvvatli biogaz qurilmasining tashqi devorlari, qoplamalariga va biomassa orasidagi issiqlik berish koeffitsiyentlarini hisoblashda tavsiya etilgan modellarini analitik tekshirish va eksperimental tekshirish uchun empirik tasdiqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

quyosh kollektori va bioreaktorni kombinatsiyalashtirish asosida biomassadan maksimal biogaz olish imkonini beradigan kichik quvvatli biogaz qurilmasining texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

ilk marotaba organik chiqindilarni anaerob sharoitda bo'lmali ishlov berish orqali fermentatsiya jarayonining samarali kechishini taminlaydigan energiya tejankor quyosh biogaz qurilmasi ishlab chiqilgan (№ FAP 2440);

mezofil harorat rejimida biomassaga bo'lmali ishlov beradigan bioreaktor geometrik parametrlari, biomassa va atrof-muhit haroratlar farqini hisobga olgan holda konvektiv issiqlik berish koeffitsiyenti hamda issiqlik qarshiliklarini optimal qiymatlarini hisoblash imkonini beradigan issiqlik uzatish tenglamalari asosida matematik model ishlab chiqilgan;

biogaz qurilmasini issiqlik bilan ta'minlaydigan yassi quyosh kollektorining pastki qismi orqali issiqlik yo'qotish koeffitsiyentini kollektorning gorizontga nisbatan tashkil qilgan burchagiga, absorber materiali va atrof-muhit haroratiga bog'liq ravishda hisoblash imkonini beradigan empirik tenglama olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

organik chiqindilarni anaerob sharoitda bo‘lmali ishlov berish orqali fermentatsiya jarayonini samarali kechishini ta‘minlovchi kichik quvvatli biogaz qurilmasining energiya tejamkor konstruksiyasi yaratilgan;

quyosh kollektorlarini integratsiyalash orqali biogaz qurilmasining energiya samaradorligini oshirish va biogaz ishlab chiqarish jarayonini jadallashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi umume‘tirof etilgan zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, tabiiy sharoitda o‘tkazilgan tajribalarning sinalgan usullar va vositalar asosida o‘tkazilishi, olingan natijalarning hisobiy natijalarga mosligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati biogaz qurilmasini issiqlik bilan ta‘minlaydigan yassi quyosh kollektorining pastki qismi orqali issiqlik yo‘qotish koeffitsiyentini kollektorning gorizontga nisbatan tashkil qilgan burchagiga, absorber materiali va atrof-muhit haroratiga bog‘liq ravishda hisoblash imkonini beradigan emperik tenglama olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati organik chiqindilarni anaerob sharoitda bo‘lmali ishlov berish orqali fermentatsiya jarayonining samarali kechishini taminlaydigan energiya tejamkor quyosh biogaz qurilmasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik quvvatli biogaz qurilmasining issiqlik-texnik parametrlarini asoslash buyicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

qishloq aholi xonadonlari va chorva fermer xo‘jaliklaridan chiqadigan organik chiqindilarni anaerob muhitda qayta ishlashga mo‘ljallangan “Quyosh biogaz qurilmasi” uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi intellektual mulk agentligidan foydali modelga patent olingan (№FAP 2440, 2024 yil). Natijada, quyosh nurlanish issiqligi va fazaviy o‘zgaruvchan issiqlik akkumulyator hamda quyosh kollektoridan foydalanib biogaz olish jarayonining optimal va uzluksiz izotermik rejimning taminlanishiga erishilgan;

organik chiqindilarni anaerob sharoitda bo‘lmali ishlov berish orqali fermentatsiya jarayonining samarali kechishini taminlaydigan energiya tejamkor quyosh biogaz qurilmasi Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumani “BUXORO AGROKLAster CHORVA” MCHJda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 3-iyul № 05/04-04-302-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, kichik quvvatli bioreaktorning har bir segmenti uchun optimal izolyatsiya qatlami qalinligi, ya‘ni yuqori 12,5 sm, pastki 10 sm va silindrsimon qismi 26,2 sm bo‘lgan bioreaktorni foydali yuzasi 0,745 m² va 579,04 kWh/m²·yil energiya berish imkoniyatiga ega quyosh kollektori bilan kombinatsiyalashtirish orqali biogaz olish rejimi uchun zarur bo‘lgan energiyani kunduzgi vaqtda to‘liq quyosh energiyasi hisobidan qoplanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro 7 ta OAK ro‘yxatidagi jurnallarda, 8 ta xalqaro va respublika ilmiy – amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda xalqaro va respublika ilmiy – amaliy anjumanlarda 8 tezis, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi intellektual mulk agentligidan 1 ta foydali modelga patent va EHM dasturiy mahsulotga 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya matni 120 betda keltirilgan.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusininig dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kichik quvvatli biogaz qurilmalari tahlili”** nomli birinchi bobida qishloq xo'jaligi chiqindilarini anaerob qayta ishlash muammosining hozirgi holati va qurilmalarini rivojlanish istiqbollari, kichik quvvatli biogaz qurilmalarida texnologik jarayonlar tasnifi va unga kechadigan issiqlik berish va massa almashinuv jarayonlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari batafsil ko'rib chiqilgan. Jahonda va mamlakatimizda qo'llaniladigan biogaz qurilmalarining hozirgi holati baholanib, yuqori samarador kichik quvvatli biogaz qurilmalarini yaratishni talab qiladigan muammolar mavjud degan xulosaga kelindi.

Dissertatsiyaning **“Kichik quvvatli biogaz qurilmasining issiqlik-texnik parametrlarini nazariy tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida kichik quvvatli biogaz qurilmasining yangi konstruksiyasi ishlab chiqilishi va o'rnatilishi, uning issiqlik texnik parametrlarini asoslash uchun amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilingan.

Kichik quvvatli quyosh biogaz qurilmasi (1-rasm) turli qisimli tizimdan iborat bo'lib, unga organik chiqindilarni dastlabki tayorlash uchun yuklash bo'g'zi, peshma-pesh bioreaktorga berish teshigi, bioreaktorning yuqori kesikkonussimon va pastki kesik konussimon qismlari, bosim va haroratni nazorat qilish datchiklari, issiqlik almashtirgich quvurlari hamda biogaz tozalagich kabi asosiy elementlar kiradi. Shuningdek, har bir bo'limdagi biomassa uchun alohida chiqarish kranlari, gaz olinadigan kranik va gazgolder o'rnatilgan.




1-rasm. Bo‘lmali quyosh biogaz qurilmasining sxemasi

1-bioreaktor; 2, 3-biomassani yuklash bo‘g‘zi va grublovodi; 4, 5, 5A-reaktorning pag‘onalangan qismlari; 6-pog‘onalar aro biomassa quyadigan quvurlar; 7-bioreaktorning pog‘onali qismlaridan o‘rnatilgan chiqarish kranlari; 8-biomassa; 9-harorat datchigi yoki termometr; 10-reaktor izolya qismi; 11-FO‘M akkumulatori; 12-gaz olinadigan kranik; 13-kompressor; 14-gaz tozalagich; 15-gazgolder; 16-quyosh kollektori; 17-rasshiritelni bak; 18-issiqlik almashtirgich quvurlari; 19-barbataj quvurlari; 20-suyuq bioo‘g‘itni qisman chiqarish bo‘g‘zi; 21-gaz o‘lchagich; 22-manometr.

Qurilma ishlash prinsipi bo‘yicha, organik chiqindilar kundalik bazada to‘planadi va ularning miqdori bioreaktorning kundalik yuklama hajmidan uch barobar katta bo‘lishi kerakligi hisobga olindi. Yuklangan chiqindilar yuqori kesikkonusdan boshlanib, pastki kesik konusgacha harakatlanib, oxirgida yuqori samarali separatorda qayta ishlanadi. Bioreaktorning harorat va bosim rejimlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular biomassaning anaerob fermentatsiya jarayoni uchun optimal sharoitlarni ta’minlaydi.


Bioreaktor kesikkonussimon qismining (2-rasm) ichki yuzasida konvektiv issiqlik berish koeffitsiyentini aniqlash uchun bioreaktorda mavjud bo‘lgan bioreaktor va biomassaning kesikkonussimon shaklidagi qismining ichki yuzasi harorati bo‘yicha eksperimental ma’lumotlardan foydalaniladi. Bioreaktorning ichki yuzasi va ichidagi harorat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish biologik fermentatsiya jarayonlarini o‘rganish va takomillashtirishda muhim hisoblanadi. 2-rasmda taqdim etilgan ma’lumotlardan, kesikkonusning yon yuzasi maydoni (A), $A = \frac{\pi}{2} \cdot c \cdot (D_1 + D_2)$, bu erda c kesik konusning yon tomon kesimi, D_1 va D_2 , yuqori va pastki asoslarining diametrlari, bu erda $A = 1,406 \text{ m}^2$. Kesikkonusning hajmi (V), $V = \frac{1}{12} \cdot \pi H_1 (D_1^2 + D_2^2 + D_1 \cdot D_2)$, bu erda H_1 - kesikkonusning balandligi, bu erda $V = 0,3667 \text{ m}^3$. Kesikkonusning yon tomonga og‘ish burchagi (ϕ) ni quyidagicha toppish mumkin, $\phi = \arccos \left(\frac{\sqrt{35^2 \text{cm}^2 - 28^2 \text{cm}^2}}{35 \text{cm}} \right) = 53,13^\circ$, bunda 0° va 60° orasida.



2-rasm. Bioreaktorning yuqori kesik konussimon qismi.

Suyuq biomassaning dinamik yopishqoqligi $\mu_{bm} = 0,002 \text{ Pa} \cdot \text{s}$, biomassaning solishtirma issiqlik sig‘imi quyidagilarga teng $c_p = 4000 \text{ J}/(\text{kg} \cdot ^\circ\text{C})$, biomassaning issiqlikdan kengayish koeffitsiyenti $\beta = 0,0003 \frac{1}{\text{K}}$, zichligi $\rho_{bm} = 1000 \text{ kg}/\text{m}^3$, biomassaning issiqlik o‘tkazuvchanligi $k_{bm} = 0,61 \text{ W}/(\text{m} \cdot ^\circ\text{C})$; bunda Gragsof soni $Gr_L = 5,41 \cdot 10^8$. Harakat miqdori diffuzivligining issiqlik diffuzivligiga nisbatini aks ettiruvchi Prandtl soni $Pr = 13,1$, Gragsof va Prandtl sonlarining hosilasi bo‘lgan Reley soni $Ra_L = Gr_L \cdot Pr = 7,1 \cdot 10^9$, bu Arximed kuchining ustunligini, harakat va issiqlik berish miqdorining nisbiy ahamiyatini, shuningdek tizimdagi konvektiv jarayonlarning potensialini ko‘rsatadi. Olingan ma‘lumotlarni (1) tenglamada almashtirish, chunki $Gr_L = 5,41 \cdot 10^8 < 10^9$, va Nusselt soni $\overline{Nu}_L = 0,67(Gr_L \cdot Pr)^{0,25} = 194,51$, kesik konussimon bioreaktorning ichki devor yuzasida issiqlik berish koeffitsiyenti $h = \frac{\overline{Nu}_L}{L} \cdot k_{bm} = 339,0 \frac{\text{W}}{\text{m}^2 \cdot ^\circ\text{C}}$ ga teng.

Vertikal silindrsimon bioreaktorlarda (3-rasm) issiqlik almashinuvi mikrobiologik faollikka ta‘sir qiladi, chunki bu jarayonda issiqlik berish biomassaning haroratiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Konvektiv issiqlik berish bioreaktorning geometrik o‘lchamlari va ichki yuzalarining konfiguratsiyasiga katta ta‘sir ko‘rsatadi, bu esa oqim tuzilishi va konvektiv issiqlik berish tezligiga ta‘sir qiladi.



3-rasm. Bioreaktorning vertikal silind qismi

$$\overline{Nu}_D = \frac{1}{24} Ra_D \left(\frac{D}{H}\right) \left\{ 1 - \exp \left[-\frac{35}{Ra_D \left(\frac{D}{H}\right)} \right] \right\}^{3/4} \quad (1)$$

bu erda Releyning o'rtacha qiymatlari va issiqlik berish koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi

$$h_s = \frac{\overline{Nu}_D k}{D} \quad (2)$$

$$Ra_D = \frac{g\beta(T_s - T_b)\rho^2 c_p D^3}{k\mu} \quad (3)$$

3-tenglama gazlar uchun ishchi suyuqlik sifatida ishlab chiqilgan va uning amal qilish chegarasi:

$$\left[10^{-1} \leq Ra_D \left(\frac{D}{H}\right) \leq 10^5 \right] \quad (4)$$

diametri 158 sm, balandligi 37 sm va ichki devor harorati 5°C bo'lgan bioreaktorning silindrsimon qismida joylashgan biomassa uchun (3) tenglamaning qo'llanilishini tekshirish: ma'lumki, 33,6°C haroratda suyuq biomassaning dinamik yopishqoqligi $\mu_{bm} = 0,002 Pa \cdot s$, suyuq biomassaning o'ziga xos issiqlik sig'imi $c_p = 4000 J/(kg \cdot ^\circ C)$; issiqlikdan kengayish koeffitsiyenti $\beta = 0,0003 \frac{1}{K}$; suyuq biomassaning zichligi $\rho_{bm} = 1000 kg/m^3$; suyuq biomassaning issiqlik o'tkazuvchanligi $k_{bm} = 0,61 W/(m \cdot ^\circ C)$ ga teng. Dastlabki ma'lumotlardan biz $Ra_D \left(\frac{D}{H}\right) = 4,65 \cdot 10^{12}$, uning qiymat diapazoni Reley raqami uchun tenglamani qo'llash shartidan tashqarida.


Yuqoridagi natijalardan bioreaktorning vertikal yo'naltirilgan silindrsimon qismida joylashgan suyuq biomassa uchun Nusselt va Reley sonining yanada barqaror korrelyatsiyasini ko'rib chiqish kerakligi aniq bo'ldi. Ushbu tekshiruvda, birinchi marta adiabatik gorizontalar devorlari, izotermik vertikal devorlari va issiqlik manbalarining to'liq bir xil taqsimlanishi bo'lgan silindrni anglatuvchi ideal holat uchun issiqlik berish koeffitsiyentini aniqlash uchun ishlatilgan.

$$Nu_D = 0,576 Ra_D^{0,2024} \left(\frac{D}{H}\right)^{0,186} \quad (5)$$


bu erda Releyning o'rtacha qiymati quyidagicha aniqlanadi

$$Ra_D = \frac{g \cdot \beta \cdot (T_s - T_b) \rho^2 c_p \cdot D^3}{k \cdot \mu} \quad (6)$$

bunda $3 \cdot 10^{10} < Ra_D < 1 \cdot 10^{13}$. (5-rasm) Tomonlar nisbatining o'rganilayotgan jarayonga ta'siri Kulatskiy tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga mos keladi. Bioreaktor devori yuzasi va biomassa harorati o'rtasidagi harorat farqi 28,6 °C dan -26,4 °C gacha o'zgarib, turli xil sharoitlarni qamrab olishi aniqlandi. Konvektiv issiqlik berish koeffitsiyenti harorat farqining oshishi bilan ortadi, bu esa yanada qizg'in issiqlik almashinuvini ko'rsatadi (4-rasm).




4-rasm. Bioreaktorning silindrsimon qismi ichki devorining yuzasida konvektiv issiqlik berish koeffitsiyentining biomassa va reaktor devorining yuzasi o'rtasidagi harorat farqiga bog'liqligi.



5-rasm. Bioreaktorning silindrsimon qismi devorining ichki yuzasida konvektiv issiqlik berish koeffitsiyentining Reley soniga bog'liqligi.


Bioreaktorning pastki kesikkonussimonning ichki yuzasida konvektiv issiqlik berish koeffitsiyentini hisoblash uchun (6-rasmga) bioreaktorning kesikkonussimon shaklidagi qismining ichki yuzasi harorati va reaktorda biomassa mavjudligi to'g'risida eksperimental ma'lumotlardan foydalaniladi.



6-rasm. Bioreaktorning pastki kesik konussimon shaklidagi qismi.

6-rasmda ko'rsatilgan bioreaktor qismining kesikkonus shaklida qilingan bo'limi rasmda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib tegishli kattaliklar aniqlanadi. Grasgof soni $Gr_L = 5,0 \cdot 10^9$, Prandtl soni $Pr = 13,11$, Reley soni, $Ra_L = Gr_L Pr = 6,53 \cdot 10^{10}$, Nusselt soni $Nu_L = 0,67 \cdot (Gr_L Pr)^{0,25} = 338,7$, bioreaktorning konussimon shaklidagi qismi devorining ichki yuzasida konvektiv issiqlik berish koeffitsiyenti $h_H = \frac{Nu_L \cdot k_{bm}}{L} = 229,6 \frac{W}{m^2 \cdot ^\circ C}$, ga teng. Uchala holatda ham konvektiv issiqlik berish koeffitsiyenti harorat farqining pasayishi bilan kamayadi.


7-rasmdan ko'rish mumkinki, biomassaning suyuq holatidagi harorati va bioreaktorning turli qismlaridagi devor yuzalari o'rtasidagi harorat farqiga qarab issiqlik berish koeffitsiyenti o'zgaradi. Umuman olganda, harorat farqi oshgani sayin issiqlik berish koeffitsiyenti ham oshadi. Yuqori kesik konus yuzasi va silindr shaklidagi qismlardagi koeffitsiyentlar o'xshash va pastki kesik konus yuzasidagiga nisbatan yuqoriroq, bu qismlarda issiqlik almashinuvi samaradorligi yuqori ekanligini ko'rsatadi.



7-rasm. Konvektiv issiqlik berish koeffitsiyentlarining suyuq biomassa va bioreaktorning yuqori konusning, silindrsimon va pastki shaklining devor yuzasi orasidagi harorat farqiga bog‘liqligini taqqoslash

Taqdim etilgan ma’lumotlarni tahlil qilib, bioreaktorning turli bo‘limlari uchun issiqlik berish koeffitsiyentlarining haroratlar farqiga o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra haroratlar farqi 28,6°C bo‘lganda bioreaktorning yuqori kesikkonusimon qismi uchun 339,0 W/m² · °C, silindrsimon qismda 339,7 W/m² · °C, va pastki kesikkonusimon qism uchun 255,7 W/m² · °C, agar haroratlar farqi -26,4°C bo‘lganida 332,3 W/m² · °C, 334,2 W/m² · °C, 250,6 W/m² · °C ga teng ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**Kichik quvvatli quyosh biogaz qurilmasida tajriba tadqiqotlari**” deb nomlangan uchinchi bobida anaerob sharoitda organik chiqindilarni qayta ishlash orqali olingan biogaz miqdorini aniqlash uchun mikrobial o‘shish modellarini logistik model asosida modifikatsiyalashning muhimligi ta’kidlangan. Anaerob fermentatsiyaning stabilligini ta’minlashda haroratning asosiy roli va quyosh energiyasidan foydalanishning biogaz olish imkoniyatlarini tezlashtirishdagi ahamiyati belgilangan. Shuningdek, bioreaktorga sutkalik yuklanadigan miqdorni bo‘lib yuklashning samaradorlikka ta’siri hamda kichik quvvatli biogaz qurilmalariga yuklanadigan organik chiqindilar tarkibini moslashtirish zarurligi urg‘ulangan. Ushbu bobda biogaz olish va organik o‘g‘it tayyorlash uchun zarur kimyoviy parametrlar-pH, umumiy ishqoriylik, uchuvchi yog‘li kislotalar miqdori va bioreaktor harorati o‘rtasidagi farqlar ham qayd etilgan.



8-rasm. Kichik quvvatli biogaz qurilmasi

1-bioreaktor; 2-issiq suv krani; 3-kollektor tagligi; 4,5-gaz krani; 6-filtir; 7-quyosh kollektori; 8-shisha plastinka; 9-biomassa solish quvuri; 10-tent; 11-biomassa; 12-o‘g‘it to‘la bo‘shatish krani; 13-aralashtirgich; 14-termoparra; 15-monometr; 16-qisman bo‘shatish quvuri; 17-sovuq suv idishi; 18-issiq suv turbinasi; 19-sovuq suv turbinasi; 20-gazgolder.

Qurilma asosiy qismlari orasida bioreaktor, quyosh kollektori (8-rasm), biogazni yig'ish va filtrlash sistemalari hamda haroratni nazorat qilish uskunalari mavjud. Ushbu tajriba–sinov qurilmasi anaerob jarayonni tezlashtirish va metanogenezni optimallashtirish imkonini beradi.



9-rasm. Kichik quvvatli biogaz qurilmasi




10-rasm. Tajribalar o'tkazish davrida haroratining $14 \pm 2^\circ\text{C}$ holatida pH miqdori 7,1 - 8,5 atrofida o'zgaruvchanligi holati

Ushbu bobda kichik o'lchamli biogaz qurilmasi (9-rasm № FAP 2440) bir tarkibli organik chiqindilarni anaerob sharoitda qayta ishlash uchun moslashtirilgan. Organik chiqindilar dastlab filtrlanadi va ularning namligi 90% dan 96% gacha sozlanadi. Bu jarayon uchun harorat 14°C dan 34°C gacha bo'lgan turli sharoitlarda sinalgan. Tajribalar 6 marotaba qaytarilib, bu orqali qurilmaning adaptatsiya davri va jarayon barqarorligi aniqlangan. Qurilmaning ishchi hajmi 1500 litr bo'lib, har bir bo'lim organik chiqindilar bilan aralashib ketmasdan, mustaqil ravishda ishlaydi. Bu tadqiqotda pH (10-rasm) kabi parametrlarni nazorat qilish metodlari qo'llanildi.


Tadqiqotlarda Buxoro shahridagi quyosh radiatsiyasi va atrof-muhit haroratini o'lchash uchun piranometr qurilmasidan foydalanilgan (11-rasm). Bu qurilma yordamida kunlik quyosh radiatsiyasi o'lchangan bo'lib, yoz oylarida uning maksimal qiymati 800 W/m^2 , minimal qiymati esa 200 W/m^2 ni tashkil qilgan (12-rasm). Shuningdek, kun davomida harorat ham kuzatilgan: ertalabki past haroratdan keyin tushga borib 40°C gacha ko'tarilib, keyin asta-sekin pasaygan. Tadqiqot davomida shamol tezligi ham kuzatilgan bo'lib, uning maksimal tezligi kun davomida 5 m/s ga yetgan (13-rasm). Bu ma'lumotlar Buxoroda joylashgan quyosh kollektorining samaradorligini aniqlashda qo'llanilgan, chunki quyosh radiatsiyasi, harorat va shamol tezligi kabi omillar kollektorning ishlash qobiliyatiga ta'sir qiladi.




11-rasm. Quyosh kollektori qurilmasi



12-rasm. Buxoro shahridagi kunlik quyosh radiatsiyasining o'zgarishi



13-rasm. Shamol tezligining kunlik o'zgarishi




14-rasm. Absorber va atrof-muhit haroratining kunlik o'zgarishi

16-rasmdagi ma'lumotlar yassi quyosh kollektori orqali isitilgan suvning chiqish haroratini kunning ma'lum vaqtlaridagi o'zgarishlarini ko'rsatadi. Quyosh radiatsiyasining yuqori bo'lishi bilan suvning chiqish harorati ham oshadi. Tonggi soat 8:14 da harorat 40-42°C bo'lgan bo'lsa (16-rasm), kunning yuqori nuqtasida, ya'ni soat 13:20 da harorat 85-89°C ga chiqadi (16-rasm). Keyingi soatlarda quyosh intensivligining pasayishi bilan suv harorati ham asta-sekin pasayib, soat 17:50 da 73-74°C gacha tushadi. Bu dinamika suvning isishi va sovishi quyosh radiatsiyasi va kunning harorat rejimiga bog'liq ekanini aniq ko'rsatib turadi.



15- rasm. Haroratni o'lchash



16-pasm. Buxoro shahridagi quyosh kollektor harorat o'zgarish dinamikasi

Tadqiqotlarimizda yassi quyosh kollektori orqali isitilgan suvning kirish va chiqish harorati kun davomida monitoring qilindi (15-16 rasmlar). Suv haroratining kunlik o'zgarishi quyosh kollektoridan bioreaktorga qadar bo'lgan quvurlar orqali isitilgan suvni bioreaktor isitkichiga yo'naltirildi. Bu jarayonda harorat doimiy nazorat ostida ushlab turildi.

Quyosh kollektorining pastki yuzasi orqali energiya yo'qotishlari ketma-ket joylashgan R_1 va R_2 - qarshiliklari bilan ifodalanadi. R_1 – izolyatsiyaning termik qarshiligi, R_2 – konveksiya va atrof-muhitga nurlanish orqali ifodalanadigan termik qarshilik. Kollektorning pastki yuzasidagi izolyatsiya orqali yo'qotish koeffitsienti quyidagicha ifodalanadi

$$U_b = \frac{1}{R_1} = \frac{\lambda}{\delta}, \quad (7)$$

bu yerda λ va δ - izolyatsiyaning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti ($W/m \cdot K$) va qalinligi (m).

Kollektor pastki qismi orqali issiqlik yo'qotish koeffitsienti (issiqlik uzatish koeffitsienti) kollektorning gorizont bilan tashkil qilgan burchagiga (bog'liq bo'lib, ushbu burchakni 45° burchakdagi issiqlik yo'qotish koeffitsientiga ($U_t(45)$)) nisbatan quyidagicha yozishimiz mumkin.

$$\frac{U_t(\beta)}{U_t(45)} = 1 - (\beta - 45)(0,00259 - 0,00144\varepsilon_p), \quad (8)$$

bu yerda β - kollektorning gorizont bilan tashkil qilgan burchagi.

$U_t(45)$ uchun quyidagi empirik tenglama Kleyn tomonidan olingan Hottel Woertz usuli bilan $\pm 0,2 W/(m^2 \cdot ^\circ C)$ aniqlik bilan, 40 dan 130 $^\circ C$ gacha bo'lgan absorber harorati oralig'idagi U_t grafikalariga mos keladi.

$$U_t(45) = \left(\frac{N}{\left(\frac{344}{T_p}\right) \left[\frac{T_p - T_a}{N+f}\right]^{0,31}} \right)^{-1} + \frac{\sigma(T_p + T_a)(T_p^2 + T_a^2)}{[\varepsilon_p + 0,0425N(1 - \varepsilon_p)]^{-1} + \left[\frac{2N+f-1}{\varepsilon_g}\right]^{-N}}, \quad (9)$$

(8) va (9) ifodalarni birgalikda yechib ixtiyoriy burchak ostida joylashgan suv isitish kollektorlari uchun issiqlik yo'qotilish koeffitsientini quyidagicha yoza olamiz:

$$U_t(\beta) = [1,11655 - 0,00259 \cdot \beta + (0,00144 \cdot \beta - 0,648)\varepsilon_p] \cdot \left[\left(\frac{N}{\left(\frac{344}{T_p}\right) \left[\frac{T_p - T_a}{N+f}\right]^{0,31}} \right)^{-1} + \frac{\sigma(T_p + T_a)(T_p^2 + T_a^2)}{[\varepsilon_p + 0,0425N(1 - \varepsilon_p)]^{-1} + \left[\frac{2N+f-1}{\varepsilon_g}\right]^{-N}} \right], \quad (10)$$

bu yerda N -shisha qoplamalar soni, $f = (1,0 + 0,04h_w + 5 \cdot 10^{-4}h_w^2)(1 + 0,058N)$; $\varepsilon_g = 0,88$ - shishaning qoralik darajasi; ε_p - absorberning qoralik darajasi, T_a - atrof-muhit harorati, K; T_p - absorber harorati, K; h_w - atrof-muhitga konvektiv issiqlik berish koeffitsienti ($W/m^2 \cdot K$) bo'lib, shamolning tezligiga bog'liq holda quyidagicha aniqlanadi.


$$h_w = 5,7 + 3,8w. \quad (11)$$

Umumiy issiqlik yo'qotilish koeffitsienti izolyatsiya qatlami va kollektor pastki qismlari orqali issiqlik yo'qotilish koeffitsientlariga teng bo'lib, quyidagicha ifodalash mumkin.

$$U_L = U_t + U_b \quad (12)$$

Tadqiqot obyektidagi suv isitish kollektori quyidagi parametrlarga ega: bitta oyna qoplamali ($N=1$), absorber va shisha orasidagi masofa 2,5 sm, absorber qoralik darajasi $\varepsilon_p = 0,95$, izolyatsiya qalinligi $\delta = 5$ sm, izolyatsiyaning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti $\lambda = 0,03 W/(m \cdot ^\circ C)$, kollektorning gorizontga nisbatan burchagi $\beta = 39,5^\circ$. Atrof muhit va absorber harorati (14-rasm), quyosh radiatsiyasi (12-rasm) hamda shamol tezligi (13-rasm) qiymatlari tajribada aniqlangan bo'lib, yuqoridagi grafiklarda ifodalangan.

(7)-(12) ifodalardan foydalanib quyosh suv isitish kollektorining issiqlik-texnik parametrlarini ifodalovchi tadqiqot natijalari 17-rasmda ifodalandi.



17-rasm. Quyosh suv isitish kollektorining issiqlik-texnik parametrlari

17-rasmdagi hisoblash natijalaridan ko'rish mumkinki, tashqi havo harorati va shamol tezligini sutkalik o'zgarishi natijasida absorber harorati ham o'zgarishi kollektor orqali konvektiv issiqlik berish koeffitsienti (o'ng ordinata o'qi) ham, orqa sirt orqali issiqlik yo'qotilish koeffitsienti va umumiy issiqlik yo'qotilish koeffitsienti (chap ordinata o'qi) ham o'zgarib boradi.

Quyosh suv isitish kollektorining samaradorligi (FIK) qurilmadan olinayotgan issiqlik energiyasining kollektor yuza birligiga tushayotgan quyosh nurlanishi quvvatiga nisbatiga teng

$$\eta_{kol} = \frac{Q_{kol}}{q_{nur}A_{kol}} \quad (13)$$

bu yerda q_{nur} – quyosh nurlanish intensivligi, W/m^2 ; A_{kol} – kollektor yuzasi, m^2 ; Q_{kol} – quyosh kollektoridan olinadigan foydali energiya (W) bo'lib, issiqlik yo'qotishlari va tiniq yuzaning optik xususiyatlarini hisobga olib quyidagicha yozish mumkin:


$$Q_{kol} = q_{nur}(\alpha\tau)A_{kol} - U_L A_{kol}(T_p - T_a) = G_s C_c(t_s'' - t_s') \quad (14)$$

(13) va (14) bog'liqliklardan kelib chiqib, quyosh kollektorining FIK hisoblash uchun ifoda quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\eta_{kol} = (\alpha\tau) - \frac{U_L(T_p - T_a)}{q_{nur}} = \frac{G_s C_c(t_s'' - t_s')}{q_{nur}A_{kol}} \quad (15)$$

12, 13, 14 va 17-rasmdagi tadqiqot va hisoblash natijalari asosida quyosh kollektoridan olinadigan foydali energiya hamda uning samadorligini hisoblash natijalarini 18-rasmda ifodalaymiz.

Past haroratli rejimlarda ishlaydigan biogaz qurilmalarida biogaz tarkibining iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida psixrofil va mezofil harorat rejimlarida metan ulushi kuzatildi. Organik chiqindilarni yuklashda, turli tarkibli materiallardan olinadigan biogaz tarkibi va ularning metan miqdori tahlil qilindi. Bu jarayonda metan asosiy tarkibiy qism sifatida aniqlandi va uning miqdori turli organik chiqindilarda turlicha bo'lishi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, harorat va uchuvchan yog'li kislotalar miqdorining me'yoriy ko'rsatkichlariga mos kelishi talab etiladi. Bioreaktorning tashqi tomonidan issiqlikdan himoyalash materiali bilan qoplanishi issiqlik yo'qotishlarini oldini oldi va havoning sovuq kunlarida ham bioreaktorning



18-rasm. Quyosh kollektoridan olinadigan foydali energiya va samaradorligining vaqt bo'yicha o'zgarishi

ishlashini ta'minladi. Quyosh kollektori esa issiqlikni samarali ta'minlab, bioreaktordagi biomassani optimal haroratda saqlashga yordam berdi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Kichik quvvatli biogaz qurilmasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari”** texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, kichik quvvatli biogaz qurilmasining erishilgan issiqlik yo'qotish koeffitsiyenti $0,024 \frac{m^2 \cdot K}{vt}$ qiymatga ega. Yuqori konussimon qism uchun issiqlik qarshiligi $0,045 \frac{m^2 \cdot K}{vt}$, silindrsimon o'rta qism uchun $0,0445 \frac{m^2 \cdot K}{vt}$, va pastki konussimon qism uchun $0,0484 \frac{m^2 \cdot K}{vt}$ ekanligi aniqlangan. Bioreaktorni qayta rekonstruksiya materiallari tanlandi va har bir bo'limning izolyatsiya qalinligi optimal varianti ishlab chiqildi. Yuqori, pastki va silindrsimon qismlar uchun optimal izolyatsiya qalinligi mos ravishda 0,125 m, 0,10 m va 0,262 m ekanligi aniqlandi.

Bioreaktorni isitish uchun zarur yillik energiya iste'moli ko'rsatkichi izolyatsiya qilingandan keyin 559,9 kWh gacha pasaygan. Bioreaktorning jami energiya iste'moli hisoblanib, shuningdek Kichik quvvatli biogaz qurilmasining umumiy issiqlik yo'qotilishining matematik modeli ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan bioreaktor uchun quyosh kollektorining yuzasi uchun optimal o'lcham $0,745 m^2$ bo'lib, tegishli narxi 521,633 so'mni tashkil etadi. Uning yillik foydali issiqlik ishlab chiqarishi $579,04 kWh/m^2 \cdot yil$ tashkil qildi. Optimal izolyatsiya qatlamini qo'llash natijasida CO₂ ning yillik emissiyasi 56892 kg ga sezilarli darajada kamaydi. Kichik quvvatli bioreaktorning qayta rekonstruksiya xarajatlari 1,010,831 so'mni tashkil etadi va yiliga $932,535 m^3/yil$ biogaz ishlab chiqarishni, mos keladigan issiqlik qiymati esa 3911,6 kWh/yil tashkil qildi. Ushbu investitsiyalar bo'yicha hisoblangan o'zini qoplash muddati 1,05 yil, bu esa investitsiyalarning nisbatan tez qaytarilishini ko'rsatadi.

XULOSA

“Kichik quvvatli biogaz qurilmasining issiqlik-texnik parametrlarini asoslash” mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taklif qilindi:

1. Kichik quvvatli biogaz qurilmasida organik chiqindilarni aralashtirishda suyuqlik oqimi tezligini ikki barobar oshirish issiqlik almashinuvini 1,75 baravarga oshirishi mumkin, bu holatda suyuqlikdagi qarshilik kuchi 3,4 barobarga ortishi aniqlandi.

2. Mezofil issiqlik rejimida (30-40°C) bioreaktor ichidagi suyuq biomassaning me'yoriy haroratda ushlab turilishida harorat farqi o'zgarishi bilan konvektiv issiqlik berish koeffitsiyentlari ham o'zgaradi, bunda eng kichik koeffitsiyent $152,3 W/(m^2 \cdot ^\circ C)$ 3,6°C da pastki kesik konus uchun, eng yuqori koeffitsiyent esa $332,3 W/(m^2 \cdot ^\circ C)$ -26,4°C da yuqoridagi kesik konusda $334,22 W/(m^2 \cdot ^\circ C)$ ekanligi aniqlandi.

3. Taklif qilingan bioreaktorning yuqori konussimon qismi-ning issiqlik qarshiligi $0,045 \frac{m^2 \cdot K}{vt}$, silindrsimon o'rta qism uchun $0,0445 \frac{m^2 \cdot K}{vt}$ va pastki

konussimon qism uchun $0,0484 \frac{\text{m}^2 \cdot \text{K}}{\text{vt}}$ deb aniqlangan. Bu ko'rsatkichlar issiqlik yo'qotishlarini minimallashtirishga erishildi.

4. Yillik gorizontal quyosh nurlanishi 1766 kWh/m^2 bo'lganda, quyosh kollektorlari orqali bioreaktorni samarali isitish imkoniyatini yaratildi va optimal o'lchamdagi quyosh kollektori $0,745 \text{ m}^2$ yillik foydali issiqlik ishlab chiqarishni $579,04 \text{ kWh/m}^2 \cdot \text{yil}$ ga yetkazish imkoniyati yaratildi.

5. Optimal izolyatsiya qatlamini qo'llash natijasida CO_2 ning yillik emissiyasi 56892 kg ga kamaygan, bu atrof-muhitga zararni kamaytirish va energiya samaradorligini oshirishga erishildi.

6. Bioreaktorning qayta rekonstruksiya harajatlari umumiy $1\,010\,831$ so'mni tashkil etadi. Yillik biogaz ishlab chiqarish hajmi $932,535 \text{ m}^3/\text{yil}$ ni, mos ravishda issiqlik qiymati esa $3911,6 \text{ kWh/yil}$ ni tashkil qiladi. Bu investitsiyalarning taxminan $12,6$ oy ichida qaytarilishiga asoslandi.

7. Bioreaktorning yuqori, pastki va silindrsimon qismlari uchun optimal izolyatsiya qalinligi mos ravishda $0,125 \text{ m}$, $0,10 \text{ m}$ va $0,262 \text{ m}$ deb aniqlangan. Ushbu optimallashtirishlar bioreaktor samaradorligini oshirish va issiqlik yo'qotishlarini kamaytirishga hissa qo'shadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.09.2020.Т.111.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-
ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

МАЖИТОВ ЖУРАБЕК АЛТИБОВЕВИЧ

**ОБОСНОВАНИЕ ТЕПЛОТЕХНИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ
БИОГАЗОВОЙ УСТАНОВКИ МАЛОЙ МОЩНОСТИ**

05.05.06- Энергоустановки на основе возобновляемых видов энергии

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Карши – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за 2023.4.PhD/Г1157

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации написан на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)), размещен на веб-странице Научного совета (www.qmii.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Имомов Шавкат Жахонович**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Искандаров Зафар Самандарович**
доктор технических наук, профессор

Эргашев Шахриёр Хамудиллаевич
доктор философии по техническим наукам, доцент

Ведущая организация: **Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова**

Защита диссертации состоится «18» 01 2025 года в 15⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.09.2020.T.111.03 при Каршинском инженерно-экономическом институте. Адрес: 180100, г.Карши, ул. Мустакиллик, 225. Конференц-зал Каршинского инженерно-экономического института. Тел/факс: (75) 224-02-89; e-mail: kiei_info@edu.uz, Конференц-зал Каршинского инженерно-экономического института.

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (зарегистрирована №133). Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225. Тел/факс: (75) 224-02-89/224-13-95. Каршинский инженерно-экономический институт.

Автореферат диссертации разослан «26» 12 2024 года.
(реестр протокола рассылки №28 от «26» 12 2024 года).



Г.Н. Узатов

Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

Х.А. Давлонов

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.ф.т.н., доцент

Б.Уришев

Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Для повышения энергоэффективности систем бесперебойного энергоснабжения потребителей в мире придается особое значение вопросам использования энергосберегающих технологий на основе возобновляемых источников энергии, в том числе солнечных биогазовых установок. Согласно данным о динамике потребления природного газа, в настоящее время ежегодный прирост населения планеты составляет 83 миллиона человек и в соответствии с этим, мировой спрос на природный газ увеличивается на 43 миллиона кубометров. Прогнозируется, что в течение ближайшего 21 года объем используемого газа метана возрастет в 3 раза³. Именно поэтому при обеспечении населения природным газом уделяется особое внимание повышению энергетической эффективности солнечных биогазовых установок.

В мире проводятся научно-исследовательские работы, нацеленные на совершенствование конструкций биогазовых установок, функционирующих на основе возобновляемых источников энергии, а также на повышение производительности и оптимизацию теплотехнических параметров таких установок. В этом направлении приоритетными считаются, в частности, исследования по определению рациональных конструктивных параметров солнечных биогазовых установок, моделированию процессов теплообмена в установке, повышению энергоэффективности биогазовой установки. Вместе с тем, к числу актуальных задач в данной сфере относятся создание энергосберегающей конструкции биогазовой установки малой мощности, обеспечивающей эффективное течение процесса сбраживания посредством секционной переработки органических отходов в анаэробных условиях, и оптимизация ее основных энергетических параметров.

В нашей республике осуществляется научно-исследовательская работа по развитию системы снабжения топливом жилых домов сельского населения с использованием различных видов возобновляемой энергии, совершенствованию технологий подготовки биогаза, в том числе по повышению энергоэффективности биогазовых установок малой мощности, обеспечивающих экономию природных топливных ресурсов.

В постановлении Президента Республики Узбекистан от 2 декабря 2022 года №ПП-436 “О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на «зеленую» экономику до 2030 года” намечены приоритетные задачи по развитию использования возобновляемых источников энергии⁴. В частности, предусмотрены экономия топливно-энергетических ресурсов в отраслях экономики в 2022- 2026 годах, расширение использования возобновляемых источников энергии, снижение выбросов парниковых газов на 35%, увеличение мощности возобновляемых источников энергии до 15 ГВт и доведение их доли в общем объеме

³ <https://www.iea.org/reports/renewables-2023/special-section-biogas-and-biomethane>

⁴ Постановление Президента Республики Узбекистан от 2 декабря 2022 года №ПП-436

производства электрической энергии до более 30 процентов, повышение энергоэффективности на 20 процентов. В процессе реализации этих задач одним из наиболее актуальных научно-технических вопросов является вопрос создания и внедрения солнечных биогазовых установок малой мощности.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, сформулированных в Законе Республики Узбекистан от 21 мая 2019 года № ЗРУ-539 “Об использовании возобновляемых источников энергии”, указе Президента Республики Узбекистан от 9 сентября 2022 года №УП-220 “О дополнительных мерах по внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии малой мощности”, постановлении Президента от 22 августа 2019 года №ПП-4422 “Об ускоренных мерах по повышению энергоэффективности отраслей экономики и социальной сферы, внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии”, а также других нормативных документах, принятых в этой сфере.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики IV. «Развитие методов использования возобновляемых источников энергии, создание технологий и устройств на основе нанотехнологии, фотоники и других передовых технологий».

Степень изученности проблемы. Большой вклад в развитие научных исследований по разработке энергоэффективных технологий биогазовых установок, предназначенных для переработки органических отходов, внесли такие известные зарубежные ученые, как G.Anuroji, академик Б.Дубровский, профессора E.Viyestur, E.Pansexava, M.Denis, B.Gandu, G.Ananashivilli, ученые микробиологи K.Sandiya, K.Kurti, Hajo Nayegele, J.Porter, Г.Никитин и другие.

В нашей республике научные изыскания по совершенствованию и повышению эффективности технологии получения возобновляемой энергии из органических отходов проводили известные ученые О.Салимов, Ш.Имомов, Г.Узоков, Б.Рахматов, О.Комилов, Х.Давлонов. В частности, ими выполнены научно-исследовательские работы по ступенчатой переработке в биогазовых установках, загрузке в биореактор измельченных органических отходов, повышению качества получаемых биогаза и биоудобрения.

